Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

01 October – 14 November 2026

UDK 33

SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MODELLARI

Gulshodaxon Kamoliddinovna Ismoilova*

Farg‘ona davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

✉ gulshoda850@mail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati va uni samarali tashkil etish masalasining dolzarbligi yoritilgan. O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga oid PF-6096-son Farmon talablari qisqacha tahlil qilingan. Korporativ boshqaruvning anglo-amerika, nemis (kontinental-yevropa) va yapon modellari direktorlar kengashining tuzilishi, aksiyadorlar tarkibi, nazorat mexanizmlari va axborotni oshkor qilish talablari bo‘yicha tavsiflangan, yapon modelining asosiy kamchiliklari ko‘rsatilgan. Korporativ boshqaruv modelini tanlashda mamlakatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy shart-sharoitlarini hisobga olish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar

korporativ boshqaruv, sanoat korxonalari, anglo-amerika modeli, nemis modeli, yapon modeli, direktorlar kengashi, kuzatuv kengashi, aksiyadorlar, keyretsu, komplaens.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida keng qo‘llaniladigan tushunchalardan biri korporativ boshqaruv tushunchasidir. “Korporativ boshqaruv oldindan mavjud, shuningdek ushbu atama yangi hamdir”. Bunga korporativ boshqaruv organlari tomonidan faoliyati samarali tashkil etilib kelinayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalari, transmilliy korporatsiyalar va hokazolarning milliy va jahon iqtisodiyotidagi o‘rni sabab bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, xususan mamlakatimizda ham korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilib kelinmoqda. Keltirilayotgan jihatlar sabab korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati, uning maqsad va vazifalarini to‘g‘ri anglash maqsadga muvofiq.

2020 yil 27 oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6096-sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra Korporativ boshqaruv va moliyaviy audit joriy etiladigan, operatsion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi korxonalar ro‘yxati tasdiqlandi. Ro‘yxatga kiritilgan 39 ta korporativ tuzilmada 2021 yil 1 iyulga qadar xaridlar va boshqaruv tizimlarini auditdan o‘tkazish hamda «muvofiqlik tizimi» (komplaens) va korrupsiyaga qarshi xizmatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etish masalalari belgilab qo‘yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Korporativ boshqaruv modeli shakllanishiga mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining aniq shart-sharoitlari, turmush-tarzining tarixiy an’analari, qonunchilik asoslari holati, jamiyatdagi asosiy qadriyatlar,

xo‘jalik subyektlarining faoliyat yuritish qoidalari va me’yorlari bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham turli davlatlardagi korporativ boshqaruv modellari o‘rtasida ma’lum darajada farqlar mavjud. Hozirgi kunda tadqiqotchilar o‘zaro keskin farqlardan kelib chiqqan holda korporativ boshqaruvning uchta asosiy modelini ajratib ko‘rsatadi. Ular anglo-amerika, nemis va yapon modellaridir [6].

Anglo-amerika, german va yapon modellari ichki boshqaruvning turli-tuman tuzilmalariga namuna sifatida asos hisoblanadi. Bu modellardan har biri agent va prinsipal o‘rtasidagi munosabatlardagi muammolarga javobni, shuningdek korporativ tuzilma faoliyat samaradorligini baholashni o‘zida aks ettiradi. Ular o‘rtasidagi prinsipial farq nazoratning ichki va tashqi mexanizmlari amal qilishida ko‘zga tashlanadi. Biror mamlakatda qo‘llash uchun korporativ boshqaruv modellaridan birini aynan olish mumkin emas, chunki korporativ boshqaruv tuzilmasi har bir mamlakatdagi shart-sharoitlar va xususiyatlardan kelib chiqqan holda rivojlanib borish xususiyatiga ega hisoblanadi.

Tadqiqotda korporativ boshqaruv modellarini qiyosiy tahlil qilish, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Korporativ boshqaruvning anglo-amerika modeli

Anglo-amerika modeli Buyuk Britaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Avstraliya mamlakatlarida keng qo‘llaniladi. Mazkur modelda korporativ boshqaruv ishtirokchilari direktorlar, boshqaruvchilar, aksiyadorlar, hukumat tuzilmalari, birjalar, konsalting tashkilotlari hisoblanadi.

Amerika modelining amaldagi o‘ziga xos xususiyati mustaqil tashqi aksiyadorlar (autsayderlar) sonining doimiy o‘sishi, shu jumladan hozirda amerika korporatsiyalari (pensiya fondlari va boshqalar) aksiyalarining yarmiga egalik qilayotgan institutsional investorlar va ularning korporatsiya ustidan nazoratdagi rolining o‘sib borishidan iborat. Amerika modelidagi yana bir xususiyati bu aksiyadorlarning strategik qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligidadir. Mazkur modelda korporativ boshqaruv jarayoni unitar (bitta darajali) direktorlar kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Kengash o‘rtacha 12 ta a’zo va bitta kengash a’zosi hisoblangan bosh boshqaruvchi (prezident) dan tashkil topadi. Ular tomonidan barcha asosiy qarorlar qabul qilinadi.

Korporativ siyosat va strategiya asosida direktorlar kengashi shakllantiriladi, kengash tomonidan mansabdor shaxslar majburiyatlari belgilanadi, moliyaviy nazorat, bosh direktor faoliyatini baholash, qonunchilik va korporativ etikaga rioya qilish amalga oshiriladi.

Direktorlar kengashida ikkita tipdagi qo‘mitalar tashkil etiladi:

– operatsion (ijroiya, moliyaviy, strategik) qo‘mitalar. Ular ijroiy direktorlardan shakllantiriladi, faoliyati davomida menejerlarga maslahat berib boradi, qarorlarni amalga oshirishga javobgar bo‘ladi, qo‘yilgan masalalar bajarilish jarayonini nazorat qiladi;

– nazorat qo‘mitalari (tayinlash va rag‘batlantirish bo‘yicha auditorlik) tashqi direktorlardan tarkib topadi.

“Mazkur modelda direktorlar kengashi va ijrochi direktor vakolatlari qat’iy tartibda ajratilgan. Bu amaliyot birinchi marta ExxonMobil korporatsiyasi tomonidan qo‘llanilgan”.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida korporativ tizim tomonidan amal qilinishi shart bo‘lgan korporativ boshqaruvning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilangan:

1) **Hisobdorlik.** Menejment va direktorlar kengashi a’zolari aksiyadorlar oldida hisobdor sanaladi va har qanday so‘rov, hattoki biografik ma’lumotlargacha taqdim etishga majbur hisoblanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida axborotlarni oshkor qilish bo‘yicha dunyodagi eng qat’iy talab belgilangan.

2) Aksiyadorlar bilan munosabatlarda shaffoflik, ochiqlik va hisobotlarning umume’tirof etilgan xalqaro standartlaridan foydalanish.

3) Barcha aksiyadorlarga, shu jumladan xorijiy aksiyadorlarga nisbatan bir xilda adolatli munosabatda bo‘lish.

4) Ovoz berishning aniq, haqqoniy metodikasi amal qilishi shartligi.

5) Aksiyadorlar bilan o‘zaro munosabatlar qat’iy ravishda amal qilinishi talab qilinadigan kodeksga asoslanishi lozim.

Korporativ boshqaruvning nemis modeli

Korporativ boshqaruvning german modeli kontinental-yevropa modeli deb ham ataladi. Bu model korporatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar barcha manfaatdor shaxslar – aksiyadorlar, moliyaviy tuzilmalar, xodimlar, davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi bilan xarakterlidir. Ko‘pincha ular yirik aksiyalar paketiga egalik qiladilar, korporatsiyalarga o‘z vakillarini qo‘yadilar va boshqalar. Ular korporativ tuzilmalarning tarkibi sifatida qabul qilinadi va boshqaruvda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi, ya’ni ijtimoiy hamkorlik prinsipi amal qiladi.

Korporativ boshqaruvning german modelida direktorlar kengashi ikki palatali, ya’ni mustaqil direktorlardan tashkil topgan kuzatuv kengashi va menejerlardan iborat ijroiya organi. Ular o‘rtasida funksiyalar, vakolatlar, javobgarlik aniq taqsimlangan holda belgilab qo‘yilgan. Kuzatuv funksiyasi qaror qabul qilish funksiyasidan ajratilgan.

Germaniyada direktorlar kengashining bosh maqsadi aksiyadorlarning alohida guruhlari manfaatlarini himoya qilish emas, balki umumiy holda korporatsiya raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi.

Korporativ boshqaruvning yapon modeli

Korporativ boshqaruvning yapon modeli ma’lum bir kesishma asosida aksiyalarga egalik qilish va nazoratga asoslangan. Natijada nihoyatda yirik moliya-sanoat korporatsiyalari (keyretsu) va ular asosida murakkab birlashma hisoblangan moliya-sanoat guruhlari shakllangan. Moliya-sanoat guruhlarida ishtirokchilar manfaatlarini ichki muvofiqlashtirishning murakkab tizimi amal qilishini ham alohida qayd etib o‘tish lozim. Bunda moliyaviy muassasalar (banklar, sug‘urta va trast kompaniyalari), savdo firmalari, ishlab chiqarish korxonalari ishtirokchilar hisoblanadi. “Bu model keyretsu modeli deb ham ataladi”.

Korporatsiyalarning aksiyalariga asosiy egalik qiluvchilar (aksiyadorlar) insayderlar hisoblanadi va ularning 70 foizi institutsional investorlar hisoblanadi. Bu yerda gap banklar va boshqa affillangan shaxslar haqida ketmoqda. “Yapon an’analaridan kelib chiqqan holda investorlar korporatsiyalar faoliyatida kichik ta’sirga ega. Bunda korporativ boshqaruv yapon klassik modeliga ko‘ra, ular aksiyadorlar bilan emas, balki manfaatdor tomonlar bilan birgalikda ish yuritadi”.

Korporativ boshqaruvning yapon modelidagi asosiy prinsipial jihatlar sifatida quyidagilar keltiriladi:

– boshqaruv tizimining asosiy bank, moliya-sanoat tarmog‘i yoki keyretsu atrofida markazlashuvi;

– boshqaruv tizimi tomonidan doimiy aloqalarning qo‘llab-quvvatlanishi;

– aksiyadorlar tomonidan direktorlar kengashining tayinlanishi. Bunda direktorlar kengashiga korporatsiya moliyaviy holatiga bog‘liq holda 50 kishigacha kiritilishi mumkin bo‘lib, unga kirish bo‘yicha ichki a’zolar (ijrochi direktorlar) ustunlikka ega hisoblanadi. O‘z navbatida ijrochi direktorlarning prezident oldida hisobdor ekanligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o‘zaro maslahatlashishi lozimligi belgilangan. Prezident nisbatan yuqori ta’sirga egaligini shundan ham bilish mumkin.

– korporatsiya bilan hamkorlik qiluvchi va bir vaqtda unga kredit taqdim etuvchi bank direktorlar kengashini nazorat qilib borishi. Faqatgina inqirozli holatlarda direktorlar kengashiga bank vakillari jalb qilinadi;

– mustaqil aksiyadorlar korporatsiya faoliyatiga ta’sir eta olmasligi;

– axborotlar ochiqligiga qo‘yilgan talablar nisbatan yuqori emasligi;

– noformal birlashmalar, avloddan avlodga o‘tuvchi va guruhlar (alohida ittifoqlar, klublar tashkil qilinishi) bo‘yicha munosabatlar ahamiyatga ega ekanligi.

Mazkur modelda o‘zaro axborot almashinuvining yuqoriligi, muhim qarorlarning o‘zaro kelishuv asosida qabul qilinishi, bahs va nizoli holatlarning ichki tartibda hal qilinishi kabilar ham alohida ajratib ko‘rsatiladi.

Korporativ boshqaruvning yapon modelining asosiy kamchiligi sifatida odatda raqobatning nisbatan chegaralanganligi, axborotlarni oshkor qilish bo‘yicha yuqori darajadagi talabning mavjud emasligi, boshqaruvning avloddan avlodga o‘tishi kabilar keltiriladi.

XULOSA

Shunday qilib, korporativ boshqaruv rivojlanib borishi bu borada tajribalar orttirilishiga olib keldi. Ma’lum bir korporativ tuzilma faoliyatida ijobiy natijalarga sabab bo‘lgan korporativ boshqaruv tajribalari boshqa korporativ tuzilmalar uchun namuna vazifasini o‘tay boshladi. O‘z navbatida korporativ boshqaruv

ijobiy tajribalarining ommalashishi yuz berdi va bu jarayon mamlakatlarni ham qamrab ola boshladi. Natijada yangi tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, korporativ boshqaruv yangidan yo‘lga qo‘yilayotgan mamlakatlar uchun namuna sifatida korporativ boshqaruv modellari yuzaga keldi. Korporativ boshqaruv modellari shakllanishida etnik aholining turmush-tarzidan kelib chiqqan holda korporativ madaniyat ham ta’sir ko‘rsatganligini alohida ta’kidlashimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Burkhanov, A. U. (2020). Assessment of financial security of investment funds. Journal of Advanced research in dynamical and control systems, 12(5), 293-300.

2. Aktam Usmanovich Burkhanov, Bobir Tursunov, Khusniddin Uktamov, and Bunyod Usmonov. 2023. Econometric analysis of factors affecting economic stability of chemical industry enterprises in digital era: in case of uzbekistan. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS ’22). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 484–490. https://doi.org/10.1145/3584202.3584274

3. Kadirov, A. (2023). Theoretical and methodological foundations of ensuring financial and economic stability of enterprises. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 08005). EDP Sciences

4. Кадиров, А. (2023). Оценка и анализ уровня экономической устойчивости промышленных предприятий. Engineering problems and innovations, 1(2).

5. Черкашнев Р. Ю., Пахомов Н. Н. Разработка направлений совершенствования механизма обновления основных средств на предприятии // Социально-экономические явления и процессы. Тамбов, 2015. Т. 10. № 1. С. 96-104

6. Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012.